

2026-yil 24-fevral

“O'zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari xalqaro ESG reytinglariga ega bo'ldi

**“O'ZKIMYOSANOAT” AJ TARMOQ
KORXONALARI XALQARO
ESG REYTINGLARIGA EGA BO'LDI**



“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ — 37 ball
“Maxam-Chirchiq” AJ — 16 ball
“Ammofos-Maxam” AJ — 12 ball

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son qarori ijrosi doirasida davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va zamonaviy korporativ boshqaruvni

joriy etish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur vazifalar doirasida O'zkimyosanoat AJ tarmoq korxonalari S&P Global xalqaro reyting agentligi bilan hamkorlikda ESG reytinglarini qo'lga kiritdi.

ESG natijalari:

- "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ — 37 ball
- "Maxam-Chirchiq" AJ — 16 ball
- "Ammofos-Maxam" AJ — 12 ball

Mazkur natijalar tarmoqda ekologik mas'uliyat, ijtimoiy barqarorlik va korporativ boshqaruv standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish jarayonlari ketayotganini ko'rsatadi.

"O'zkimyosanoat" AJ tarmog'ida ESG tamoyillarini joriy etish — bu shunchaki reyting emas, balki barqaror va mas'uliyatli kelajakka qaratilgan strategik qadamdir.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalari-xalqaro-esg-reytinglari>